

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
**TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH
MILLIY AGENTLIGI**



TA'LIM DASTURINI
MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O'TKAZISH BO'YICHA

YAKUNIY HISOBOT



JIZZAX POLITEHNIKA INSTITUTI

Davlat oliy ta'lim tashkiloti

60610500 – Sun'iy intellekt
Bakalavriat



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI**

60610500 – Sun'iy intellekt

**TA'LIM DASTURINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN
O'TKAZISH BO'YICHA YAKUNIY HISOBOT**

JIZZAX POLITEKNIKA INSTITUTI

(Ekspert komissiyasi xulosasi asosida)

EKSPERT KOMISSIYASI TARKIBI



Rais: DJALALOV MUZAFFAR MUXITDINOVICH

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

falsafa doktori (PhD)



A'zo: VICTOR TARATUKHIN

University of Muenster / Stanford US

fan doktori (DSc)

1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

Ariza raqami	MAO260017
Xulosa raqami	689
Xulosa sanasi	20.06.2026
Ta'lim tashkilotining to'liq nomi	"JIZZAX POLITEXNIKA INSTITUTI" DAVLAT MUASSASASI
Tashkilot manzili, litsenziya / identifikatsiya ma'lumotlari	Jizzax viloyati, Jizzax shahri, X.Do'stligi shoh ko'chasi, 4-uy. Guvohnoma: MAS № 0000280, 08.07.2026.
Baholangan ta'lim dasturi nomi	Sun'iy intellekt
Yo'nalish / mutaxassislik kodi	60610500
Akkreditatsiya usuli	masofaviy / joyiga chiqib

2. HUQUQIY ASOSLAR

Xulosa tayyorlanishiga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjat:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida" 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom.

Maxsus davlat akkreditatsiyasi:

O'rta maxsus, kasbiy, oliy ta'limni va oliy ta'limdan keyingi ta'limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayoni boshlanishidan oldin amalga oshiriladigan jarayon.

3. TA'LIM DASTURINING UMUMIY TAVSIFI

1. Ta'lim tashkilotining litsenziya/guvohnomasi: <i>License/Certificate of Educational Institution:</i>	MAS № 0000280, 08.07.2026
2. Ta'lim tashkilotining turi: <i>Type of Educational Institution:</i>	Davlat oliy ta'lim tashkiloti
3. Ta'lim dasturi kodi va nomi: <i>Code and Name of Study Programme:</i>	60610500 – Sun'iy intellekt
4. Ta'lim dasturining ingliz tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in English:</i>	60610500 – Artificial Intelligence
5. Ta'lim dasturining rus tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in Russian:</i>	60610500 – Искусственный интеллект
6. Hamkorlikda amalga oshirilishi: <i>Offered in Cooperation with:</i>	—
7. Ta'lim tili: <i>Medium of Instruction:</i>	o'zbek
8. Ta'lim shakli: <i>Mode of Study:</i>	kunduzgi
9. Ta'lim dasturi hajmi: <i>Study Programme Credits:</i>	240 kredit
10. Ta'lim dasturi davomiyligi: <i>Duration of Study Programme:</i>	4 yil
11. Milliy malaka ramkasidagi darajasi: <i>Level in National Qualifications Framework:</i>	6-daraja
12. Kvalifikatsiya(lar) nomi: <i>Qualification Title:</i>	Sun'iy intellekt bo'yicha muhandis
13. Qo'shimcha beriladigan kvalifikatsiyalar: <i>Additional Qualifications Awarded:</i>	—
14. Ta'lim dasturi yakunida beriladigan hujjat turi: <i>Type of Document Issued Upon Completion:</i>	Davlat namunasidagi diplom
15. Ta'lim oluvchilarning me'yoriy miqdori (to'liq davr): <i>Maximum Number of Students (full period):</i>	120 nafar
16. Ta'lim dasturini o'qitish manzili: <i>Address Where the Study Programme is Delivered:</i>	Jizzax viloyati, Jizzax shahri, X.Do'stligi shoh ko'chasi, 4-uy

4. BAHOLASH YO'NALISHLARI VA MEZONLAR BO'YICHA NATIJALAR

Har bir yo'nalish bo'yicha baho (muvofig / muvofig emas) va har bir mezon bo'yicha baho (muvofig / qisman muvofig / muvofig emas) deb baholanadi.

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
1.	Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash	Muvofiq
1.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi;*</i>	Muvofiq
1.2.	<i>ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha 5 yillik istiqbolli rejaning mavjudligi;</i>	Muvofiq
1.3.	<i>ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta'minlangani;</i>	Muvofiq
1.4.	<i>mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
2.	Ta'lim dasturlari	Muvofiq
2.1.	<i>manfaatdor tomonlar ishtirokida ta'lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani. Bunda ta'lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, mehnat bozori, davlat ta'lim standarti va milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiqligi;*</i>	Muvofiq
2.2.	<i>ta'lim dasturining milliy ta'lim tizimidagi ustuvor yo'nalishlar va xalqaro andozalar asosida ishlab chiqilgani;</i>	Muvofiq
2.3.	<i>ta'lim dasturining davomiyligi, fanlarning uzviyligi va uzluksizligi ta'minlangani;</i>	Muvofiq
3.	O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash	Muvofiq
3.1.	<i>ishchi o'quv reja va dasturlarining belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgani;*</i>	Muvofiq
3.2.	<i>o'quv jarayonining ta'lim dasturida belgilangan o'quv natijalariga erishishga yo'naltirilgani;*</i>	Muvofiq
3.3.	<i>o'quv jarayonining doimiy baholab borilishi va takomillashtirishga qaratilgani;</i>	Muvofiq
3.5.	<i>ta'lim dasturi doirasida talabalar bilimining shaffof va xolis baholanishi, baholash jarayonlarining o'quv natijalariga muvofiqligi;</i>	Muvofiq
3.6.	<i>talabalarning baholash natijalari bo'yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi;</i>	Muvofiq
3.7.	<i>ta'lim dasturida akademik halollik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
4.	Talabalar faoliyati	Muvofiq
4.1.	<i>ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablari aniq belgilangani, o'qishga qabul qilish shaffof tarzda yo'lga qo'yilgani;</i>	Muvofiq
4.2.	<i>qabul parametrlarining ta'lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi;*</i>	Muvofiq
4.3.	<i>talabalarining o'qishini ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish (qoldirish), o'qishdan chetlashtirish va o'qishini qayta tiklash tartibining belgilangani;*</i>	Muvofiq
4.4.	<i>talabalarni qo'llab-quvvatlash va ularga maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi;</i>	Muvofiq
5.	Inson resurslari	Muvofiq
5.1.	<i>ta'lim dasturi uchun belgilangan me'yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar mavjudligi hamda ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mosligi;*</i>	Muvofiq
5.3.	<i>yangi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi fanlarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq
5.4.	<i>kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
6.	Moddiy-texnik ta'minot	Muvofiq
6.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish uchun amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari va kurs ishi (loyiha)ni bajarish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalarning mavjudligi hamda metodik qo'llanma (ko'rsatma)lar bilan ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.2.	<i>fanlar kesimida o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, elektron ta'lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.3.	<i>o'quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxona (poligon)larning talabalar sonidan kelib chiqib, ta'lim dasturlariga mos jihozlar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangani hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilingani;*</i>	Muvofiq
6.4.	<i>inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani;</i>	Muvofiq
6.5.	<i>axborot-resurs markazining (kutubxonaning) ta'lim dasturlariga mos o'quv adabiyotlari, kompyuterlar bilan ta'minlangani, o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
6.6.	<i>raqamli ta'lim muhiti yaratilgani (LMS, wi-fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta'lim imkoniyatlari);</i>	Muvofiq
6.7.	<i>ta'lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, maxsus xona yoki bino va inshootlarining (sport zali, stadion, musiqa xonasi va boshqalarning) mavjudligi.</i>	Muvofiq

5. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA XULOSALAR

1-bob. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi

1-bob bo'yicha o'tkazilgan baholash natijalari hamda taqdim etilgan hujjatlar tahlili asosida mazkur bobdagi barcha indikatorlar muvofiq deb topildi. Tahlillar natijasida ta'lim dasturini boshqarish, rivojlantirish va sifatni ta'minlash uchun zarur tashkiliy-boshqaruv tizimi shakllantirilgani aniqlandi. Ta'lim dasturini rivojlantirishga qaratilgan besh yillik istiqbolli reja ishlab chiqilgan bo'lib, unda ta'lim sifatini oshirish, professor-o'qituvchilar salohiyatini rivojlantirish, moddiy-texnik bazani mustahkamlash, raqamlashtirish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish hamda moliyaviy barqarorlikni ta'minlash bo'yicha ustuvor yo'nalishlar kompleks tarzda qamrab olingan. Har bir ustuvor yo'nalish bo'yicha aniq maqsadlar, vazifalar, mas'ul ijrochilar va amalga oshirish muddatlari belgilangan bo'lib, bu istiqbolli rejaning amaliy ijrosini ta'minlashga xizmat qiladi. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash tizimi ta'lim dasturining maqsadlari hamda amaldagi normativ talablarga muvofiq shakllantirilgan.

2-bob. Ta'lim dasturlari yo'nalishi

2-bob bo'yicha o'tkazilgan baholash natijalari hamda taqdim etilgan hujjatlar tahlili asosida mazkur bobdagi barcha indikatorlar muvofiq deb topildi. Tahlillar natijasida ta'lim dasturi amaldagi Davlat ta'lim standartlari, Milliy malakalar ramkasi hamda sun'iy intellekt sohasining zamonaviy rivojlanish tendensiyalarini inobatga olgan holda ishlab chiqilgani va belgilangan normativ talablarga muvofiq shakllantirilgani aniqlandi. Ta'lim dasturining maqsadlari, kutilayotgan o'quv natijalari va shakllantiriladigan kompetensiyalar aniq belgilangan bo'lib, ular o'zaro uzviy bog'langan hamda mehnat bozori ehtiyojlariga yo'naltirilgan. Politehnika instituti sharoitida sun'iy intellekt yo'nalishi uchun muhandislik tayyorgarligi bilan algoritmik va hisoblash kompetensiyalarining uyg'unligi muhim ahamiyat kasb etadi, chunki

bitiruvchiga "Sun'iy intellekt bo'yicha muhandis" kvalifikatsiyasi beriladi. O'quv rejasidagi fanlarning mantiqiy ketma-ketligi va uzviyligi talabalarda zamonaviy sun'iy intellekt texnologiyalarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish bo'yicha kasbiy kompetensiyalarni bosqichma-bosqich shakllantirishga xizmat qiladi. Ta'lim dasturi mazmuni ta'lim dasturining maqsadlari hamda amaldagi normativ talablarga muvofiq shakllantirilgan.

3-bob. O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash yo'nalishi

3-bob bo'yicha o'tkazilgan baholash natijalari hamda taqdim etilgan hujjatlar tahlili asosida mazkur bobdagi barcha indikatorlar muvofiq deb topildi. Tahlillar natijasida ta'lim dasturi doirasida o'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash bo'yicha samarali akademik hamda metodik mexanizmlar shakllantirilgani aniqlandi. Ta'lim dasturining o'quv rejalari va sillabuslarini ishlab chiqish hamda takomillashtirish jarayonida ish beruvchilar, soha mutaxassislari, professor-o'qituvchilar va talabalarning faol ishtiroki ta'minlangan bo'lib, bu ta'lim dasturini mehnat bozori ehtiyojlari va zamonaviy texnologik rivojlanish tendensiyalariga mos ravishda yangilab borishga xizmat qiladi. Talabalarning ta'lim dasturini takomillashtirish jarayoniga jalb etilishi qayta aloqa mexanizmining samarali ishlashini ta'minlaydi. Sun'iy intellekt yo'nalishi uchun laboratoriya mashg'ulotlari, loyihaviy ishlar va amaliy topshiriqlarning yuqori ulushi muhandislik hamda algoritmik kompetensiyalarni shakllantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Baholash jarayonlarining shaffofligi, akademik halollik tamoyillariga rioya etilishi hamda o'quv natijalarini xolis baholash mexanizmlari ta'lim dasturining maqsadlari va amaldagi normativ talablarga muvofiq tashkil etilgan.

4-bob. Talabalar faoliyati yo'nalishi

4-bob bo'yicha o'tkazilgan baholash natijalari hamda taqdim etilgan hujjatlar tahlili asosida mazkur bobdagi barcha indikatorlar muvofiq deb topildi. Tahlillar natijasida talabalarni qabul qilish, o'qishini ko'chirish, qayta tiklash, akademik harakatini tashkil etish hamda ularni akademik, ijtimoiy va kasbiy jihatdan qo'llab-quvvatlash bo'yicha samarali institutsional mexanizmlar shakllantirilgani aniqlandi. Talabalarni qabul qilish va akademik harakati bilan bog'liq barcha jarayonlar amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar asosida tashkil etilgan bo'lib, ularning shaffofligi, ochiqligi va xolisligi ta'minlangan. Qabul parametrlari ta'lim muassasasining kadrlar salohiyati, moddiy-texnik bazasi va ta'lim jarayonini samarali tashkil etish imkoniyatlariga muvofiqlashtirilgan. Talabalarni akademik, ijtimoiy va kasbiy qo'llab-quvvatlash

tizimi shakllantirilgan bo'lib, talabalar faoliyatini tashkil etish tizimi ta'lim dasturining maqsadlari hamda amaldagi normativ talablarga muvofiq yo'lga qo'yilgan.

5-bob. Inson resurslari yo'nalishi

5-bob bo'yicha o'tkazilgan baholash natijalari hamda taqdim etilgan hujjatlar tahlili asosida mazkur bobdagi barcha indikatorlar muvofiq deb topildi. Tahlillar natijasida institutda 60610500 – Sun'iy intellekt ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur inson resurslarini boshqarish tizimi samarali shakllantirilgani aniqlandi. Professor-o'qituvchilar, boshqaruv, texnik hamda o'quv-yordamchi xodimlarni tanlash, ishga qabul qilish va rivojlantirish jarayonlari amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar asosida tashkil etilgan. Kadrlarga bo'lgan ehtiyoj muntazam tahlil qilinib, ta'lim dasturining rivojlanish istiqbollari hamda mehnat bozori talablarini inobatga olgan holda inson resurslarini rivojlantirish bo'yicha tegishli chora-tadbirlar amalga oshiriladi. Sun'iy intellekt yo'nalishi uchun professor-o'qituvchilarning zamonaviy axborot texnologiyalari, dasturlash, algoritmlar va sun'iy intellekt texnologiyalari bo'yicha sohaviy-texnologik salohiyatga ega bo'lishi ta'lim sifatini ta'minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Inson resurslarini boshqarish tizimi ta'lim dasturining maqsadlari hamda amaldagi normativ talablarga muvofiq shakllantirilgan.

6-bob. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi

6-bob bo'yicha o'tkazilgan baholash natijalari hamda taqdim etilgan hujjatlar tahlili asosida mazkur bobdagi barcha indikatorlar muvofiq deb topildi. Tahlillar natijasida ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur moddiy-texnik baza, axborot-resurs ta'minoti hamda raqamli ta'lim infratuzilmasi amaldagi normativ talablar asosida shakllantirilgani aniqlandi. Institut zamonaviy o'quv auditoriyalari, kompyuter sinflari, ixtisoslashtirilgan laboratoriyalar, axborot-resurs markazi, elektron kutubxona, yuqori tezlikdagi internet tarmog'i hamda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan ta'minlangan. O'quv jarayonini boshqarish va monitoring qilishda HEMIS hamda LMS platformalaridan samarali foydalanilishi ta'lim jarayonining raqamlashtirilgan boshqaruvini ta'minlaydi. Sun'iy intellekt yo'nalishi uchun yuqori unumdor hisoblash resurslari, ixtisoslashtirilgan laboratoriyalar va zamonaviy dasturiy vositalarning mavjudligi talabalarda algoritmlar ishlab chiqish, sun'iy intellekt modellarini yaratish va ularni amaliy muammolarni hal etishda qo'llash bo'yicha kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Moddiy-texnik ta'minot tizimi

ta'lim dasturining maqsadlari hamda amaldagi normativ talablarga muvofiq shakllantirilgan.

6. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA ANIQLANGAN KAMCHILIKLAR VA NOMUVOFIQLIKLAR

Jiddiy kamchiliklar (akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi):

Ta'lim dasturini yo'lga qo'yish uchun to'sqinlik qiladigan jiddiy kamchiliklar aniqlanmadi

Bartaraf etilishi lozim bo'lgan juz'iy kamchiliklar:

- ✓ Ayrim indikatorlar bo'yicha dalillovchi materiallar bazasini kengaytirish maqsadga muvofiq.
- ✓ Sun'iy intellekt yo'nalishi uchun hisoblash quvvati va ixtisoslashgan laboratoriya bazasini mustahkamlash tavsiya etiladi.
- ✓ Ish beruvchilar bilan amaliyot va loyihaviy hamkorlikni kengaytirish maqsadga muvofiq.

7. TA'LIM DASTURINI SIFATLI TASHKIL ETISH BO'YICHA TAVSIYALAR

- ✓ Dalillovchi materiallar bazasini kengaytirish va o'quv-metodik ta'minotni yangilash.
- ✓ Hisoblash resurslari va ixtisoslashgan dasturiy ta'minot bazasini kengaytirish.
- ✓ Ish beruvchilar bilan loyihaviy hamkorlik va amaliyot bazalarini rivojlantirish.
- ✓ Professor-o'qituvchilarning sohaviy-texnologik salohiyatini izchil oshirish.

8. TA'LIM DASTURI BO'YICHA YAKUNIY XULOSA

Baholash natijalariga ko'ra, Jizzax politexnika institutining 60610500 – Sun'iy intellekt bakalavriat ta'lim dasturi bo'yicha taqdim etilgan hujjatlar, o'quv-uslubiy ta'minot, tashkiliy-boshqaruv tizimi, ta'lim dasturi mazmuni, o'quv jarayoni, talabalar faoliyatini tashkil etish, inson resurslari hamda moddiy-texnik ta'minot kompleks tahlil qilindi. Tahlillar natijasida ta'lim dasturini boshqarish, rivojlantirish va sifatni ta'minlash bo'yicha samarali tashkiliy-boshqaruv tizimi shakllantirilgani, besh yillik istiqbolli rivojlanish rejasi ishlab chiqilgani hamda unda har bir ustuvor yo'nalish bo'yicha aniq maqsadlar, vazifalar, mas'ul ijrochilar va amalga oshirish muddatlari belgilanganligi aniqlandi. Ta'lim dasturi mazmuni sun'iy intellekt sohasining zamonaviy rivojlanish tendensiyalari, Davlat ta'lim standarti va Milliy malakalar ramkasi talablari asosida ishlab chiqilgan bo'lib, o'quv rejalari va sillabuslarni takomillashtirish jarayonida ish beruvchilar, soha mutaxassislari, professor-o'qituvchilar hamda talabalar ishtiroki ta'minlangan. Ta'lim dasturini

amalga oshirish uchun zarur inson resurslari shakllantirilgan, zamonaviy kompyuter sinflari, ixtisoslashtirilgan laboratoriyalar, axborot-resurs markazi, HEMIS va LMS platformalari hamda boshqa raqamli ta'lim infratuzilmasi mavjud. Baholash yakunlariga ko'ra, tashkiliy-boshqaruv, ta'lim dasturi mazmuni, o'quv jarayoni, talabalar faoliyati, inson resurslari hamda moddiy-texnik ta'minot yo'nalishlarining barchasi belgilangan akkreditatsiya mezonlariga muvofiq deb topildi. Aniqlangan ayrim jihatlar ta'lim dasturini amalga oshirishga to'sqinlik qilmaydi hamda uni yanada takomillashtirishga qaratilgan tavsiyaviy xususiyatga ega. Umuman olganda, 60610500 – Sun'iy intellekt bakalavriat ta'lim dasturi belgilangan akkreditatsiya mezonlari va talablariga muvofiq hisoblanadi. Shu asosda ta'lim dasturi **MUVOFIQ** deb topildi.

9. TA'LIM DASTURI BO'YICHA AKKREDITATSIYA KOMISSIYASI QARORI

Akkreditatsiya komissiyasi qarori sanasi:	02.07.2026
Akkreditatsiya komissiyasi bayon soni:	4-son
Yakuniy qaror:	AKKREDITATSIYADAN O'TDI



+998 55 505 30 30



info@nqaee.uz
www.nqaee.uz



@nqaeeuz



@nqaeeuzbot

